

TEXNIK MATNLARNI TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK MOSLIK MUAMMOLARI

Alfraganus universiteti Ijtmoiy fanlar fakulteti

Logopediya yonalishi 3 kurs talabasi

Turg'unboyeva Feruza Shuxrat qizi

Annotatsiya: Maqolada texnik matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan terminologik moslik muammolari va ularni hal qilish usullari tahlil qilinadi. Texnik matnlar ilmiy-texnik axborotni aniq, ravshan va bir ma'noda ifodalashni talab qiladi. Shu sababli ularning tarjimasida terminlarning to'g'ri qo'llanishi, semantik aniqlikni saqlash va universal ekvivalentlikni ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: texnik tarjima, terminologik moslik, ekvivalentlik, terminlar, unifikatsiya, standartlashtirish.

ПРОБЛЕМЫ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ СОВМЕСТИМОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ТЕХНИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация: В статье анализируются проблемы терминологической совместимости, возникающие при переводе технических текстов, и методы их решения. Технические тексты требуют ясного, однозначного и недвусмысленного выражения научно-технической информации. Поэтому правильное использование терминов, сохранение семантической точности и обеспечение универсальной эквивалентности при их переводе имеют большое значение.

Ключевые слова: технический перевод, терминологическая совместимость, эквивалентность, термины, унификация, стандартизация.

PROBLEMS OF TERMINOLOGICAL COMPATIBILITY IN THE TRANSLATION OF TECHNICAL TEXTS

Abstract: This article analyzes terminological compatibility issues that arise during the translation of technical texts and methods for addressing them. Technical texts require clear, unambiguous, and unambiguous expression of scientific and technical information. Therefore, the correct use of terms, maintaining semantic accuracy, and ensuring universal equivalence during translation are of great importance.

Keywords: technical translation, terminological compatibility, equivalence, terms, unification, standardization.

Texnik tarjima tarjimashunoslikning eng murakkab va mas’uliyatli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki texnik matnlar oddiy lingvistik tuzilmalar bilan cheklanib qolmay, ular ilmiy-texnik sohaning o‘ziga xos terminologiyasini, maxsus belgilarini, qisqartmalarini va ko‘p hollarda xalqaro standartlarga asoslangan ifoda vositalarini o‘z ichiga oladi. Texnik matnlarda tilning quruq va qat’iy bo‘lishi ularni oson tarjima qilinadigan ko‘rinishda tasavvur qildirsa-da, amalda aksincha, tarjimon oldida juda murakkab vazifalarni qo‘yadi. Chunki bиргина terminning noto‘g‘ri tarjima qilinishi butun matnning mazmunini buzishi, muhandislik, tibbiyat, axborot texnologiyalari kabi sohalarda esa jiddiy xatoliklarga, amaliy jarayonlarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shu boisdan texnik tarjima jarayonida terminologik moslikni ta’minalash muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologik moslik nafaqat lug‘aviy ekvivalentni topish, balki uni kontekstga moslashtirish, mazmuniy aniqlikni saqlash va xalqaro standartlarga mos shaklda ifodalashni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy texnologiyalar, yangi ixtiolar va ilmiy tadqiqotlar bilan bog‘liq atamalarni tarjima qilishda tarjimon o‘z bilim va tajribasidan tashqari, doimiy ravishda terminologik bazalar, lug‘atlar va mutaxassislarning maslahatlariga murojaat qilishi talab etiladi.

Shunday qilib, texnik tarjimada terminologik moslikni ta’minalash tarjimonning lingvistik kompetensiyasi bilan bir qatorda, uning soha bo‘yicha bilim darajasi, madaniy va ilmiy tafakkuri, hamda xalqaro standartlarni chuqur anglab yetish qobiliyatiga ham bog‘liqidir. Bu jihatlar texnik tarjimani oddiy tarjimadan tubdan farqlantiradi va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Texnik matnlarni tarjima qilishda terminologik moslikni ta’minalashda quyidagi muammolar kuzatiladi:

- Ekvivalentning yo‘qligi ayrim terminlarning boshqa tilda tayyor ekvivalenti mavjud emas. Masalan, yangi ilmiy-texnik yangiliklarni ifodalovchi terminlar ko‘pincha o‘zbek tilida bevosita mavjud bo‘lmaydi.
- Ko‘pma’nolilik (polisemiya) bir termin bir necha sohada turlicha ma’noda qo‘llanishi mumkin. Bu esa tarjimada semantik chalkashliklarga olib keladi.
- Qisqartmalar va akronimlar texnik matnlarda tez-tez uchraydigan qisqartmalar tarjimada o‘z ifodasini topishi qiyin bo‘ladi. Masalan, CPU, RAM, GPS kabi terminlarni ba’zan asl shaklida qoldirish, ba’zan esa izoh bilan berish talab qilinadi.
- Standartlashtirishning yetishmasligi turli manbalarda bir xil termin turlicha tarjima qilinishi terminologik notekislikka olib keladi. Masalan, “software” so‘zining “dasturiy ta’milot”, “dasturiy mahsulot” yoki “dasturiy vosita” kabi variantlarda qo‘llanishi mumkin.

Texnik tarjimada terminologik moslikni ta'minlash uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanish mumkin:

- Terminologik lug'atlar va bazalardan foydalanish terminlarning yagona shaklda qo'llanishini ta'minlaydi.
- Xalqaro standartlarga tayanish terminologiyani unifikatsiya qilishga yordam beradi.
- Izohli tarjima ekvivalenti bo'limgan terminlarni tushunarli qilib yetkazadi.
- Transliteratsiya yoki kalkalash ba'zi terminlarni asl shaklida yoki o'zga til qoidalariga moslashtirib berish.

Texnik matnlarni tarjima qilishda terminologik moslikni ta'minlash masalasi tarjimon oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Chunki texnik axborot o'z tabiatiga ko'ra aniq, bir ma'noli va chalkashliksiz ifodalanishi kerak. Har qanday terminning noto'g'ri tarjimasi nafaqat matn mazmunini buzadi, balki real hayotda salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Shu bois tarjimon terminlarni to'g'ri qo'llash uchun nafaqat milliy lingvistik bilimga, balki sohaga oid maxsus bilim va tajribaga ham ega bo'lishi lozim.

Texnik tarjimaning sifatini oshirishda terminologik lug'atlar, xalqaro standartlar va unifikatsiyalash jarayonlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilayotgan elektron korpuslar, terminologik ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan tarjima vositalari bu borada muhim yordamchi hisoblanadi.

Shunday qilib, texnik matnlarni to'g'ri tarjima qilish nafaqat tarjimashunoslik fanining taraqqiyoti uchun, balki ilm-fan, sanoat va texnologiya rivojlanishiga ham bevosita hissa qo'shadi. Bu jarayonda terminologik moslikni ta'minlash, aniq ekvivalentlarni tanlash va sohalararo muloqotni soddalashtirish tarjimonning asosiy vazifasi bo'lib qoladi. Demak, texnik tarjimalar sifatini oshirish orqali milliy ilmiy-texnik tafakkurni jahon miqyosida samarali targ'ib qilish imkoniyatlari kengayadi.

ADABIYOTLAR

1. Newmark P. A Textbook of Translation. / London: Prentice Hall, 1988.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. / London: Routledge, 2018.
3. Hutchins J. Machine Translation: Past, Present, Future. / Ellis Horwood, 1986.
4. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва: Высшая школа, 1990.
5. Karimov A. Texnik tarjima asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.